

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**6**

(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X T	TAHRIRIYAT
	4
	<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>
R. Djurayev	6 Mustaqil o'zbekistonda ma'naviy-axloqiy g'oyalarning rivoji
M. Inoyatova	11 O'quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish
F. Karimova	16 Pedagogning axborot muhitida rivojlantirish muammolarini va axborot kompetenligi mazmuni
H. Begimqulov	20 Innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish mazmuni
M. Umaraliyeva	25 Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o'qituvchi kompetensiyasi
U. Mahkamov	29 Talabalarda mustaqil ta'lif jarayonida kreativ fikrlash malakalarini shakllantirish
	<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>
J. Xusanov	33 Geometriya fanidan uslubiy ishlasmalar tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi
N. Shamsiddinov	36 Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari
B. Quvonov	41 Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish yo'llari
R. Safarova	45 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkurni shakllantirish xususiyatlarini o'rganish
M. Xaydarova	49 O'rta tibbiy ta'lifni kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi
K. Karimova	53 Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari va texnologiyalar
N. Akbarova	59 Xorijiy til o'qituvchilarida deontologiya va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari
	<b>TA'LIM SIFATI</b>
N. Karimova	63 Professional ta'lilda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini baholash mezonlari
F. Abdullayev	68 Tabiiy fan (science) bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash yondashuvlari
	<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>
F. Berdibekova	75 Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiya darsini tashkil etishni o'rgatish texnologiyasi
Z. Boymurodova	80 Oilada bolalarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni

---

M. Mahmudov	84	Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish
Sh. Abduraxmanov	89	Talaba-yoshlarni vatanparvarlikka tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari
Z. Raximov	93	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining samarali imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati



### MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

H. Safoyev	97	Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni
------------	----	--



### ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

F. To'rabekov	101	"Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" fani bo'yicha multimediali elektron darslik yaratish metodikasi
S. Ro'zmetova	104	Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalarning o'rni
A. Tolametov	108	Umumta'lim maktablarda jismoniy tarbiya fanida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammollar



### PSIXOLOGIYA

Z. Yo'ichiyeva	113	O'qitishning didaktik vositalari va ularning ijtimoiy pedagogik psixologik ahamiyati
----------------	-----	--



### INKLYUZIV TA'LIM

O. Musurmanova, G. Solihova	116	Nogiron bolalarni ijtimoyiloshtirishning huquqiy-nazariy asoslari
K.Todjibayeva	120	Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limga amaliyatga joriy etish: muammo va yechimlar
S. Mamatova	124	Innovatsion yondashuv asosida umumiyligini o'rta ta'limga muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish



### МАКТАБГАЧА TA'LIM

N. Abdullayeva	127	Maktabgacha ta'limga klasterli yondashuv tatbiq etish orqali ta'limga sifati samaradorligini oshirish
----------------	-----	---



### ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Муслимов	131	Педагогические условия формирования графической компетентности у будущих учителей технологии
-------------	-----	--



### МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

M. Atoeva	134	Zначение физического эксперимента в обучении физике и методика его организации на уроках
-----------	-----	--



### ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

I. Sherалиев	140	Допризывная подготовка молодежи в процессе школьного физического воспитания
--------------	-----	---

**Maqsud MAHMUDOV,**

Buxoro davlat universiteti "Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport" kafedrasи o'qituvchisi

## **AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqlolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishga akmeologik yondashuv hamda ushbu yondashuvning ijodi xarakteri mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Akmeologiya, yondashuv, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik mahorat, ijod, maqsad, natija.

В данной статье показаны пути совершенствование педагогического мастерства будущих учителей физического воспитания на основе акмеологического подхода и его творческий характер.

**Ключевые слова.** Аксиология, подход, будущий учитель, педагогическое мастерство, творчество, цель, результат.

This article shows the ways of improving the pedagogical skills of future physical education teachers based on the acmeological approach and its creative nature.

**Key words.** Axiology, approach, future teacher, pedagogical skills, creativity, goal, result.

**Y**angilanayotgan O'zbekiston hamda xalqimiz ongi, tafakkurida farovon va baxtli hayotga ishonch shakllanayotgan sharoitda respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy-madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda.

Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri-mamlakat mehnatkashlarining, xususan, yoshlar ta'lim – tarbiysi bilan shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'dirdi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojanishi, ilmiy – texnikaviy taraqqiyotning jadallahuviga, mavjud pedagogik – psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi"ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi.

Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etishdan iboratdir. Shu maqsadda, ta'lim yo'nalishlari, jumladan jismoniy madaniyat va sport sohasidagi mutaxassislarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

O'zbekistonda ijtimoiy, madaniy vaziyatning o'zgarishi pedagogika fanida insonparvarlikka asoslangan g'oyalar va maqsadlarning ustuvor o'rin egallashini jadallashtirdi. Ta'lim paradigmasining o'zgarishi murakkab pedagogik jarayonlarni vujudga keltirdi. Bu esa uzlusiz ta'lim tizimi, ayniqsa, oliy pedagogik ta'lim mazmunini akmeologik yon-

---

dashuv asosida modernizatsiyalashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lif mazmunini modernizatsiyalash asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatini insonparvarlik tamoyil asosida tashkil etishga erishish maqsadida akmeologik yondashuvdan keng foydalanish talab etiladi.

Akmeologik yondashuv doirasida oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash va o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda bir qator yondashuvlarga tayanish zaruriyati mavjud. Ular: oliy pedagogik ta'lif mazmunini insonparvarlashtirish, ushbu tizimning faoliyat ko'rsatishiga xizmat qiladigan asosiy metodologik yondashuvlarni aniqlash, oliy pedagogik ta'lif mazmunini tanlashda tizimi yondashuv, faoliyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, falsafiy-antropologik yondashuv, sinergetik yondashuv tamoyillaridan iborat.

Pedagogik ta'lif mazmunini modernizatsiyalashda, birinchi navbatda, mutaxassislarining e'tiborini akmeologik yondashuvga qaratish talab etiladi.

Akmeologiya (yunoncha akme – yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, logos – ta'lifot) – Shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarini o'rganuvchi fan<sup>1</sup>.

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahoratini rivojlantirish deganda – bo'lajak o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha fundamental bilimlarni chuqur egallashi, kasb-hunarning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jihatlariga ijobjiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini ushbu burch va mas'uliyatni ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga intilish jihatlarini o'rganishi lozimligi tushuniladi.

Pedagogik-psixologik yondashuvlarga asoslangan holda qaralganda o'qituvchining ijodiy faoliyat shunday faoliyatki uning natijasida yangi innovatsion pedagogik harakatlar amalga oshirilib samarali yutuqlarga erishiladi. O'qituvchining ijodiy faoliyati pedagogik jarayonda aniq o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Buning natijasida, o'quvchi aql-idroki va his-tuyg'ulari tarkibida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagagi pedagogik jarayonlar o'quvchilarning muayyan bir yangilikni his etishlariga ko'maklashadi. Mazkur nuqtayi nazar ta'lif jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda yanada rivojlantirilishi kerak. Biroq, har qanday pedagogik faoliyat ham ijodiy xarakter kasb etavermaydi.

Aksariyat mutaxassislari (J.G'.Yo'idoshev, M.Ochilov, R.G'.Safarova, F.Yuzlikayev, Sh.S.Sharipov, B.B.Ma'murov, B.Q.Xodjayev, Q.F.Abdullayev) pedagogik xarakterdagagi ijodkorlikning kasbiy ijodiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar. Bunday ijodiy tafakkurning asosiy belgisi ijodiy xarakterdagagi pedagogik faoliyat natijasi ekanligi shak-shubhasizdir. Ushbu xarakterdagagi ijodiy yutuqlar o'quv-biluv faoliyati natijasida qo'lga kiritiladi.

Ijodiy xarakterdagagi pedagogik qadriyatlar uchta katta guruhga bo'linadi: 1) pedagogik ijodga oid qadriyatlar; 2) pedagogik kechinmalarga oid qadriyatlar; 3) pedagogik munosabatlarga oid qadriyatlar.

Bularning asosini esa ijod tushunchasi tashkil etadi. Ma'lumki, ijodiy faoliyat natijasida, moddiy hamda ma'naviy qadriyatlar yaratiladi. Barcha madaniy-tarixiy hodisalar orasida ijodkorlik o'zining muayyan millat ruhiyati va mentalitetiga bog'liq yo'nalishlariga egaligi bilan ajralib turadi. Bu yo'nalishlar ijodning muayyan shaxs va jarayonga aloqadorligi

---

<sup>1</sup> Pedagogika: ensiklopediya / tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 45-46-betlar

bilan izohlanadi. Ijod har bir shaxsdan layoqatlar, mayllar, bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Chunki xuddi mana shu layoqatlar, mayllar, bilim va ko'nikmalar yordamidagina ijodiy faoliyat mahsuli bo'lgan betakror yangiliklar vujudga keladi.

Ijod tushunchasi pedagogik atamalar doirasida alohida ustuvorlikka ega bo'lib, shu bilan bir qatorda, u bilan yaqin ma'noga ega bo'lgan, mantiqiy jihatdan o'ziga xos ma'nolar tashuvchi evristik va kreativlik atamalari ham mavjud.

Evristika – grek tilidan olingan so'z bo'lib, izlayman, topaman ma'nolarini ifodalaydi<sup>2</sup>. Mazkur metod doirasida ijodiy faoliyat usullari o'rganilib ushbu usullardan yangiliklarni kashf etish va o'quv jarayonini loyihalashda keng foydalilanildi. Pedagogik evristikaning asosiy mohiyatini yangi kasbiy vazifalarni yechish jarayonini ifodalovchi model tashkil etadi. Evristika tushunchasi betakrorlikni anglatadi. Bu betakrorlik pedagogik voqeiylikda mavjud bo'lgan holatlardan tubdan farq qiladi.

O'qituvchining ijodiy mahsulorligi – pedagogik g'oyalalar, hukmlar, loyihalar, kasbiy faoliyat natijasida vujudga kelgan xulosalar bilan belgilanadi. O'qituvchi dunyoqarashining chuqurligi evristik faoliyati natijasining mantiqiy asosini tashkil etadi. O'qituvchi ijodiy tafakkurining kengligi va moslashuvchanligi unga o'z-o'zini hamda ijodiy xarakterdagи pedagogik yondashuvlarni namoyon qilish imkonini beradi. O'qituvchining o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash sohasining kengligi hamda shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish layoqati unga pedagogik jarayonlarni nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilish va maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish imkonini beradi.

Kreativlik esa lotinchadan olingan so'z bo'lib, ijod qilish, yaratish degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu o'qituvchining noodditiy g'oyalarni vujudga keltirish layoqatidir. Bunday layoqatga ega bo'lgan o'qituvchilar muammoli vaziyatlarga tezkorlik bilan yechim topib an'anaviy o'qitish usullaridan voz kechgan bo'ladilar.

O'qituvchining kreativ quvvati – uning shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashga layoqatliligin anglatadi. Bunday o'qituvchilar pedagogik faoliyatlarini jarayonida o'z-o'zlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu imkoniyat ular egallagan kasbiy bilimlari doirasida o'z ifodasini topadi.

Shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ijodkorlik, evristik qobiliyati, ijodni kengaytirishning ta'limi modelini vujudga keltirish asosida rivojlantiriladi.


Shu o'rinda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ijodkorlikka o'rgatish mumkinmi, degan haqli savol tug'iladi. Bunday savolga ilmiy manbalarda turlicha javoblar mavjud. Mutaxassislar shaxsni ijodkorlikka o'rgatish, unda ijodiy faoliyat ko'nikmalarni shakllantirish, buning natijasida uni har tomonlama rivojlantirish imkoniyati mavjudmi degan savolni qo'yadilar. Bu savol uzlusiz ta'limning barcha bosqichlarida mutaxassislar oldiga ko'ndalang bo'lib turadi. Bu savolga beriladigan javoblar ham turli-tumandir. Chunki ijodkorlik inson bilish faoliyatining o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq. Shuning uchun ham u insonning o'ziga xos betakror xususiyati hisoblanadi.

Ijodkor shaxsni shakllantirish mumkin emas, unga faqatgina ta'limi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali ijodiy faoliyat ko'nikmalari tarkib toptiriladi. Akmeologik yondashuv har doim ta'lim oluvchilarining rivojlanishi, yaratuvchilik va ijodkorlik ko'nikmalarni egalashlari uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Akmeologik yondashuv asosidagi ta'lim jarayonida ijod shaxs erkinligi va rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda ta'lim oluvchilarni ijodkorlikka undash, ularda ijodiy faoliyat ko'nikmalarni rivojlanishiga ta'lim jarayonining birinchi darajali vazifasiga aylanishi kerak. Bunda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiqdir:

<sup>2</sup> Pedagogik atamalar lug'ati. // tuzuvchilar: jamoa. – T.: Fan nashriyoti, 2008-yil. 144-b.

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI



1) bo'lajak o'qituvchilar ijodiy quvvatlarining rivojlanshiga to'sqinlik qilmaslik, ularda yaratuvchilik imkoniyatlarining vujudga kelishi uchun mustaqillikni ta'minlash;

2) bo'lajak mutaxassislarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga muntazam undash, bu holatni ularning ma'naviy-axloqiy sifatlariga aylantirish, ijodiy faoliyat ko'rsatishga yo'naltirilgan vaziyatlarni vujudga keltirishdan iborat. Buning uchun o'qituvchilar pedagogik jarayonlarni maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirish, o'quv jarayonining o'quvchilarni ijodkorlikka undash darajasini muntazam oshirishga intilishlariga yo'naltirilgan faoliyat bilan bo'lajak o'qituvchilarni qurollantirishlari kerak. Shu maqsadda, ta'lif oluvchilarda ijod qilishga intilish, moyillik, aniq maqsad, xohish-istik, mehnatsevarlik, muntazam mustaqil bilim olish, izlanish, o'zining madaniy darajasini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish talab etiladi.

Oliy pedagogik ta'lif jarayoni subyektlarida akmeologik yondashuv asosida pedagogik tafakkurni muvaffaqiyatlari rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lif mazmunini modernizatsiyalashda quyidagilarni hisobga olish talab etiladi: oliy pedagogik ta'lif jarayoni subyektlarining real o'quv imkoniyatlarini aniqlash maqsadida akmeologik

xarakterdagи tashxislash tadbirlarini o'tkazish, shu asosda ularning o'quv imkoniyatlari, kasbiy mayllari, qiziqishlari, qadriyatlari, istiqboldagi pedagogik faoliyatlarida qo'llaniladigan bilimlar ko'lamini aniqlash; o'quv jarayonida pedagogik tafakkurning samarali rivojlanishiga imkon beradigan qulay pedagogik vositalarni tanlash; o'qitishning interfaol metodlari va tashkiliy shakllariga keng o'ren ajratish asosida oliv pedagogik ta'lim jarayoni subyektlarining shaxsiy-kasbiy mavqelarini mustahkamlash uchun qulay o'quv vaziyatlarini tashkil etishni nazarda tutish; pedagogik tafakkurning rivojlanishida oliv pedagogik ta'lim jarayoni subyektlarining topshiriqlarning turli shakllari, manbalar hamda ma'ruza matnlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabilar.

Bo'lajak o'qituvchilar ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli loyihalashtirish va tashkil etish tajribasiga ega bo'lislari uchun birinchi navbatda, ta'lim oldida turgan ijtimoiy buyurtma: uning umumiyligi va xususiy maqsadlari, fan-texnika yutuqlari, jamiyat ehtiyoji, shaxs taraqqiyoti qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lislari lozim. Buning uchun ularda kreativlik, tahliliy tafakkur, o'qituvchilik kasbiga moyillik, insonparvarlik, hamkorlik muhitini vujudga keltira olish, jamoaviy fikrni hurmat qilish kabi sifatlar barqaror rivojlangan bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonini loyihalashtirishga tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslarini yaratish uchun bir qator muammolarni yechish talab qilinmoqda: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishning didaktik xususiyatlarini aniqlash; o'quv-biluv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarga nisbatan qadriyat darajasidagi munosabatda bo'lish tajribasini qaror toptirish; bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'p yo'nalishli o'quv-biluv jarayonini loyihalashga tayyorlash; bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonining konseptual asoslari va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish kabilar.

Xulosa qilib aytganda, amaliy kuzatishlarimiz, pedagogik va ijtimoiy madaniy tajribalarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak mutaxassislarda ijodiy layoqatlarni rivojlantirish asosida ularni ijodkorlikka o'rgatish mumkin. Buning uchun o'quv jarayoni mustaqil bilim olish, rivojlanish, ijodiy kamol topish jarayoniga aylanishi lozim. Shuning uchun ham, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining mustaqil ijodiy rivojlanishini oliv ta'lim jarayonining dastlabki bosqichidan oq boshlash talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. –М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: НПО МОДЭК, 2004. – С.752.
2. Костихина Н.М. Акмеология физической культуры и спорта: учеб. пособие. – Омск: Изд-во СибГУФК, 2005. – С.180.
3. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2017, 128-b.
4. Pedagogik atamalar lug'ati. // tuzuvchilar: jamoa. – T.: Fan nashriyoti, 2008 yil. –144-b.
5. Pedagogika: ensiklopediya / tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 45-46-betlar.